

# **ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSONI O'RGANISH MASALALARI xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya**

## **NAVOIYDAN DAVLAT BOSHQARUVIGA OID HUQUQIY SABOQLAR**

**Sherali ABDURAIMOV**

*Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti  
Qishloq xo'jaligi huquqi va agroturizm kafedrasи assistenti  
e-mail: [sheraliphd1987@gmail.com](mailto:sheraliphd1987@gmail.com)*

**DOI <https://doi.org/10.5281/zenodo.14804396>**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Alisher Navoiy asarlari poetikasini o'rganish jarayonida milliy davlatchilikka oid qarashlari tahlili, Navoiyning davlat va jamiyat boshqaruvi yo'nalishidagi hayotiy-falsafiy fikrlari berilgan.

**Kalit so'zlar:** davlat, milliy davlatchilik, jamiyat, jamiyat boshqaruvi, vatanparvarlik, fiqh.

**Abstract:** This article analyzes the views of Alisher Navoi on national statehood in the process of studying the poetics of his works, and gives Navoi's vital and philosophical thoughts on state and social governance.

**Keywords:** state, national statehood, society, social governance, patriotism, jurisprudence.

Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda, ularni ma'naviy kamol toptirishda she'riyat bo'stonining sultoni, buyuk mutafakkir va davlat arbobi Mir Alisher Navoiyning milliy davlatchilikka oid qarashlari katta ahamiyatga ega. Zero, bugungi yoshlarimiz kelajakda davlat xizmatchilari, Vatanning chinakam vorislari bo'lib yetishishlari shubhasiz. Shunda Navoiyning davlat va jamiyat boshqaruvi yo'nalishidagi hayotiy-falsafiy fikrlari juda asqotadi.

Davlat mustahkamligi va jamiyat ravnaqining asosiy talabi – bu shahzodalar va bo'lg'usi davlat arboblari tarbiyasiga qattiq kirishmoqdan iboratdir. U "Farhod va Shirin" dostonining shahzoda Shohg'arib Mirzoga bag'ishlangan 53-faslida shoh ilmini chuqur o'rganmog'i lozimligi, haqiqiy ilm esa shoир yashagan davrning yetakchi mafkurasi bo'lmish din ilmi ekanini uqtiradi. Din ilmida asosiysi, deydi shoир, fiqh, ya'ni islom qonunshunosligi (yurisprudensiya), hadisi nabaviy – to'g'ri yashash dasturi va tafsir – ilohiy kitob hikmatlarini anglamoqdir.

Alisher Navoiy "xavos-u avom" – podshoh-u ra'iyat, barcha sinf va toifadagilar tarbiyasi borasida so'z yuritgan donishmand mutafakkir edi. Uning qarashlariga ko'ra, huquqiy davlat va erkin fuqarolik jamiyatida iqtisod ham, ma'naviyat ham tom ma'nodagi erkinlik asosida rivojlanmog'i lozim. Bu sohadagi yot mafkura tazyiqini shoир katta falokat deb biladi.

Xullas, buyuk bobokolonimiz bahri ummonidan o'zimiz istagan qaysi sohada bo'lmasin, imkoniyatimiz darajasida dur-u javohirlar topmog'imiz mumkin. Chunonchi, shoир "butun yurt shod-u xurram bo'lsa-yu, orada bitta g'amzada inson

# **ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSONI O'RGANISH MASALALARI**

## **xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya**

bo'lsa ham, menga dunyo qorong'udur", deya kuyunchaklik bilan xitob qilib turganda, qay tariqa uning bebaho merosiga loqayd bo'lmoq mumkin:

To g'amdadur Navoiy, dahr anga tiyradur,  
Shod anglamas ulusni birov bo'lsa qayg'uliq.

Xuddi shu so'zlar buyuk shoir Navoiyninggina emas, balki yirik siyosatdon, davlat arbobi, vaziri a'zam Nizomiddin amir Alisherning g'oyaviy yo'riqnomasi, asosiy qonuni edi.

Alisher Navoiyning davlat va jamiyat boshqaruviga ijodiy munosabati doimiy dolzarb hamda o'ta hayotiy muhim muammodir. Ushbu mavzu bugungi bozor iqtisodiyoti sharoitida, xususan, yangi asrimizning o'tgan sakkiz yilida biror o'rinda to'laqonli yoritilmadi. Aslida, milliy davlatchilik asoslarini barpo etishning ma'naviy masalalari hamisha Alisher Navoiyning diqqat markazida turgan.

Bugun bozor iqtisodiyoti xususiy mulk tarafdoi. Bu tizimda har bir kishining xususiy mulkka ega bo'lishigina emas, balki uni ko'paytirishi, yirik mulkdorga aylanishi qonun bilan kafolatlangan. Mulkdorlik huquqi jamiyatning barcha qatlamlari, toifa-yu tabaqa vakillariga berilgan. Xususiy mulkdorlikni rag'batlantirish, takomillashtirish yo'lga qo'yilgan.

Yangi tizim qonuniyatları, o'z-o'zidan, jamiyatda mulkdorlik ruhiyatini shakllantirishni taqozo etadi. Bozor iqtisodiyoti tizimi mulkdorlar jamiyatı tarafdoi ekan, bugungi zamondoshimiz, u qaysi soha va kasb egasi ekanidan qat'i nazar, mulkdorlar toifasiga mansub bo'lishi qonuniy holdir.

Mana shu o'rinda Navoiy saboqlariga zarurat seziladi. Ya'ni bozor iqtisodiyoti tizimida shakllanayotgan fuqarolik jamiyatı ma'naviy barkamol insonlardan tarkib topishi, boshqaruvdagi davlat xizmatchiları esa ma'naviy komil insonlar bo'lishi lozim. Navoiyning bu boradagi qarashlari, ayniqsa, "Hayrat ul-abror" dostonining uchinchi maqolotida qiyomiga yetkazib ifodalangan. Navoiy nazdida mulku mamlakat egasi kim? Uning ma'naviy sifatlari oddiy xalq vakillari bilan qanday nisbatda? "Shohning munglug' mushavvashlar bila ne nisbati?"

Aytish joizki, Navoiyning bu boradagi fikrlarini faqat shohgagina emas, balki barcha davlat xizmatchilariga, mulkdorlarga nisbatan tatbiq etish mumkin. Albatta, mulkdorlar – jamiyatning yetakchilari. Ammo Navoiyning fikricha, ular alohida holatda ko'pchilikning biri. Tabiiy salohiyatlariga ko'ra, ular boshqa jamiyat a'zolari bilan teng. Hatto, ularga nasib etmagan ayrim fazilatlar boshqalarda bo'lishi mumkin.

Alisher Navoiyning davlat boshqaruvi xodimlarining xalq oldidagi mas'uliyati masalasidagi qarashlari ham hozirgi davlat va huquq nuqtai nazari bilan yakdil. Ushbu masala Asosiy qonunimizda quyidagicha yechimini topgan: "Davlat xalq

# **ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O'RGANISH MASALALARI**

## **xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya**

irodasini ifoda etib, uning manfaatlariga xizmat qiladi. Davlat organlari va mansabdar shaxslar jamiyat va fuqarolar oldida mas'uldirlar”[1].

Bozor iqtisodiyoti ma’naviyati ham navoiyonaadolatli boshqaruvni taqozo etadi. Navoiyning o‘zi ma’rifatli mulkdor bo‘lgan va ma’rifatli mulkdorlikni yoqlagan. Agar yosh tadbirkor ma’nana barkamol, ko‘zi to‘q, saxovatli, oliyhimmat bo‘lmasa, nafsi undan g‘olib keladi. Boylik orttirishning esa chek-chegarasi yo‘q. Oqibatda, bunday mulkdorlik ma’naviy inqirozga olib boradi. Navoiy el shod, mamlakat obod bo‘lishining asosiy shartini quyidagi asarida katta badiiy jasorat bilan namoyish etgan:

To hirs-u havas xirmani barbod o‘lmas,  
To nafs-u havo qasri barafrod o‘lmas,  
To zulm-u sitam jonig‘a bedod o‘lmas,  
El shod o‘lmas, mamlakat obod o‘lmas.

Demak, bo‘lg‘usi mulkdorlarni ma’naviy kamol toptirish uchun ularning ma’naviy-ruhiy olamidan hirs-u havas, nafs-u havo kabi buzg‘unchi tamoyillarni barham toptirish, zulm-u sitamning jon taslim etishiga erishish zarur ekan. Shundagina, Navoiy orzu etganidek, jamiyatda ma’naviy barkamol mulkdorlar sinfi shakllanadi, el shod, mamlakat obod bo‘ladi.

Navoiy ijodi abadiy barhayotligining siri shundaki, u azaliy va abadiy mavzularni yuksak mahorat bilan qalamga olgan: muhabbat va vafo, do‘stlik, insonparvarlik, mehnatsevarlik, halollik, mardlik, saxovat, qanoat,adolat, oljanoblik, yaxshilik kabi insoniy fazilatlarni ulug‘lagan bo‘lsa, yomonlik, zulm-zo‘rlik, nohaqlik, e’tiqodsizlik, bevafolik, dilozorlik, hasad, riy, kibr, yolg‘on, ta’ma, xasislik singari illatlarni keskin tanqid qilgan. Insoniyat jamiyatni mayjud ekan, bu ijobjiy va salbiy xususiyatlar u yoki bu darajada yashaydi. Binobarin, Navoiy kabi hassos shoirlarning ezgulikni ulug‘lash, yovuzlikni qoralashga yo‘naltirilgan asarlari hamma davrlarda ham jamiyat manfaatlariga birday xizmat qilaveradi.

Sharqning barcha ulug‘ so‘z san’atkorlari va mutafakkirlari kabi komil inson g‘oyasi Alisher Navoiy ijodining ham shox tomirini tashkil etadi. Mustaqil O‘zbekiston ma’naviy siyosatining asosida ham komil insonlarni tarbiyalab yetishtirish g‘oyasi yotadi. Bu haqda yurtboshimiz Islom Karimov shunday degan edi: “... biz komil inson tarbiyasini davlat siyosatining ustuvor sohasi, deb e’lon qilganmiz. Komil inson deganda biz, avvalo, ongi yuksak, mustaqil fikrlay oladigan, xulq-atvori bilan o‘zgalarga ibrat bo‘ladigan bilimli, ma’rifatli kishilarni tushunamiz”.

Demak, har jihatdan yetuk, barkamol insonlarni tarbiyalab yetishtirish mustaqil O‘zbekistonda davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgan hozirgi davrda millat quyoshi

# **ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSONI O'RGANISH MASALALARI**

## **xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya**

Alisher Navoiyning nafaqat davlatchilik, balki komil inson haqidagi qarashlari o‘z aksini topgan serqirra ijodini o‘qish va o‘rganish yoshlari ma’naviyatini o‘stirish, ularning mumtoz adabiyot to‘g‘risidagi qarashlarini kengaytirishga xizmat qiladi, Navoiy mezonidagi komil inson qanday bo‘lishi kerakligini teran anglashlari va ulug‘ ajdodlariga munosib vorislar bo‘lib yetishishlari uchun ilmiy-ma’rifiy jihatdan yordam beradi.

Muxtasar qilib aytganda, Navoiy kuylagan adolatli davlat g‘oyasi, buyuk davlatchilik orzusining qirralari shunchalik ko‘pki, ularni birma-bir sanab chiqish uchun ham lofi bilan alohida kitob yozish kerak.

### **Adabiyotlar ro‘yxati**

#### **(Использованная литература / References):**

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Rasmiy nashr. – Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2023. – 80 bet.
2. “Yangi O‘zbekiston strategiyasi 2022-2026” O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-60-son Farmoni Lex.uz. 2022.
3. Alisher Navoiy. Hikmatlar/A.Navoiy: Nashrga to‘plovchi, so‘z boshi va izohlar muallifi E.Ochilov. –T.: “O‘zbekiston”,2011. – 408 b.
4. “7x7” gazetasi. 07.02.2013 yil, №6(814),Sh.Abduraimov. Navoiydan davlat boshqaruviga oid saboqlar.
5. “7x7” gazetasi. 19.04.2012 yil, №16(772),Sh.Abduraimov. Navoiy qadrlagan ayollar–bugun mustahkam oila tayanchi.